

MUHAMMAD ALI IJODIDA TEMUR VA TEMURIYLAR

Laylo Rahmatova Abdulla qizi

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi
2-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14419016>

Annotasiya. Mazkur maqolada shoir Muhammad Ali Ahmedov hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot va uning asarlarida Temur va Temuriylar obrazi bayon etilgan.

Kalit so'z: Amir Temur, Sahibqiron, Ulug' saltanat, Sarbadorlar, Ramon, epopiya, Jahongir Mirzo, Umarshayx Mirzo, Mironshoh Mirzo, Shohruh Mirzo.

TIMUR AND THE TIMURIDS IN THE WORKS OF MUHAMMAD ALI

Abstract. This article contains brief information about the life and works of the poet Muhammad Ali Akhmedov and the image of Timur and the Timurids in his works

Key words: Amir Temur, Sahibqiron, Uluġ Sultanat, Sarbadors, Novel, Epic, Jahangir Mirzo, Umarshaikh Mirzo, Mironshah Mirzo, Shahrukh Mirzo.

O'zbek xalqi yozuvchisi Muhammad Ali Ahmedov 1942-yil 1-martda Andijon viloyatining Bo'zsuv tumanida tug'ilgan. Muhammad Ali shoir, yozuvchi, olim, pedagog sifatida faoliyat yuritib kelmoqda ijodi.

Muhammad Ali nazmda, nasrda va publitsistikada ko'plab asarlar ijod etgan. So'nggi 35 yil davomida 20 ta she'riy to'plami o'zbek, rus, qozoq va qoraqalpoq tillariga tarjima qilinib, bir necha bor nashr etilgan. Shoh asarlari "Boqiy dunyo", "Gumbazdagi nur", "Sarbadorlar" va "Ulug' saltanat" asarlaridir. Uning "Otalar yurti", "Oq nur", "Sen bir gulsan", "Sevsam sevilsam", "Oshiq bo'lmay Haq diydorini ko'rsa bo'lmas", "Sarbadorlar", "Saylanma", "Men ko'rgan Amerika", "Ulug' saltanat", "Ulug' ajdodlardan meros shijoat", "Zamondoshim poreritiga chizgilar" kabi asarlari mavjud.

Muhammad Alining "Sarbadorlar" asarining bir necha boblari bevosita Amir Temurga bag'ishlangan bo'lib, bu obrazni yaratish jihatidan ilk chizgilar sifatida o'rta tashlangan. Adib 10 yildan ko'roq vaqt davomida ulug' sarkarda haqidagi ilmiy va adabiy ma'lumotlarni qunt bilan o'rgandi. Shu yo'sinda Amir Temurga bag'ishlangan asari "Ulug' saltanat" epopiyasi yuzaga keldi. Shoir ulug' sarkardani ko'proq kundalik maishiy hayot, oila, qarindosh-urug' va do'st yorlar muhitida ko'rsatadi. Asar 4 kitobdan iborat bo'lib, 2003-2013 yillar oralig'ida yozib tugatilgan. 4 kitob Amir Temurning o'g'illarining ismi bilan nomlangan.

Birinchi kitob "Jahongir Mirzo", ikkinchi kitob "Umarshayx Mirzo", uchinchi kitob "Mironshoh Mirzo", to'rtinchi kitob "Shohruh Mirzo" deb nomlangan.

Asarda ko'proq sohibqiron farzandlarining tarbiyasi, kattaroq bo'lganda ularning qismati, har xil yo'sinda ro'y bergan tashvishlari, ularni uyli joyli qilish, ularga munosib kelin topib uylantirish, farzandlarining boshiga biron ish tushsa ularga hamnafas bo'lish, ularning dardiga sherik bo'lish holatlari tasvirlanadi.

Buni quyidagi jummalarda ham ko'rish mumkin:

"Uyg'onib ketgan Amir Temurning bu tushdan ko'ngli parishon bo'ldi. Yarim kecha ekanligiga qaramay Muhammad Cho'riog'a dodxohni yoniga chorlabdida buyurdi:

- Mamat jigarim! Shitob bilan Samarqand borg'il! Jahongir Mirzoga degilki, o'zini asrasin nasihat qilg'il, ogoh bo'lg'in!

Muhammad Cho'riog'a dodxoh yerga tikilgancha indamay qoldi.

-Nechun jimsan, Mamat?

-Yoningizda bo'lsam degandim... Tashlab ketgim kelmay turibdi...

- Mendan xavotir olmag'il! Shitob Samarkand borg'il! Uqdingmi?

-Uqdim. Bosh ustiga, Amir sohibqiron!

Muhammad Cho'riog'a dodxoh bir necha sipohlar kuzatuvida tong yorishmay poytaxtga jo'nab ketdi. Oradan ikki kun o'tgach har xil hayollardan butkul oromini yo'qotgan Amir Temurning o'zi ham "Qaydasan Samarkand" -deb yo'lga ravona bo'ldi.

Yuqoridagi jummalardan shuni aniqlash mumkinki, Amir Temur doim farzandlari, oilasi ko'yida bo'lgan. Hatto tunlari tushlarida ham ularni o'ylagan. Tunda yomon tush ko'rib uyg'onib ketadi va o'g'lidan havotir olib uning yoniga Muhammad Cho'riog'ani yuboradi. Shunda ham ko'ngli tinchimay o'glini ko'rgani o'zi Samarkandga ravona bo'ladi. Keyingi jummalarda ham aynan shu holat yuz bergan.

Holsiz yotgan Jahongir Mirzoga tikilarkan, Amir Temurning yuraklari ezildi. Ko'zlariga yosh quyila boshladi, ammo favqulodda bir shijoat bilan ko'z yoshini tegib qoldi.

- Haq subhonahu taola parvardigor doru xonasidan bir shifoyi karomat yetkazsun iloho! - Qo'lini duoga ochdi Mirsaid Baraka. -Omin!

- Shifo bersun, iloho! Omin! - Duo qildi hamma

Ha, dorilfanodagi har bir qadam bandasi uchun ulkan sinov... Oqil banda sinovlarni mohirona tadbir bilan o'ta olmoog'i shart. Amir Temur ham ne ne sinovlardan o'tmadi, bari uchun parvardigor egamga shukrlar aytadi.

Bu jummalardan shuni anglashimiz mumkinki.¹ *"Muhammad Ali romanida tasvirlanishicha Amir Temur shurolar davrida tasvirlanganidek, doim qilichidan qon tomib turadigan zolim, qasoskor va bosqinchi emas. Shoir bunga alohida urg'u beradi.*

Ammo u dushmanga ham qat'iyatsiz emas edi. Shundan davlat barpo etish yo'lida qilgan janglarda gunohkorlar bilan birga begunohlar ham jabrlangan holatlari bo'lgan. Ammo u bu holatga achingani tabiiydir".

Muhammad Ali "Ulug' saltanat" asaridan tashqari o'zining "Saylanma" kitobining qadimgi qo'shiqlar bobida ham Amir Temur haqida she'ri o'rin olgan.

Amir Temur qabridan ovoz

Ey, tarixchi, etma umrimni taroj!

Bas bunday gaplarga emasman muhtoj.

Tori uzilsa ham soz atalur, soz,

Boshdan tushganda ham toj, baribir, toj.

Mustaqillik davridan oldin Amir Temur haqidagi asarlarda bu ulug' sarkardaning shaxsiyati va faoliyati bo'rttirib ko'rsatiladi. Uning shaxsiyati iloji boricha kamsitildi. Shoir shuni nazarda tutgan holda Temur nomidan tarixchiga "Ey, tarixchi mening umrimni talan-taroj etma",-deya murojaat qiladi. Yoki mustaqillikdan keyingi davrda Amir Temurning shaxsiyati haqidagi ancha ijobiy tus oladi. Bu holatga esa shoirning "Bas, bunday gaplarga emasman muhtoj"-jumlasini keladi. Ya'ni shoir "Tori uzilsa ham soz atalur soz, Boshdan Tushganda ham toj, baribir toj" jumlasini bilan Amir Temur vafot etgan bo'lsa ham u Amir Temur bo'lib qolaveradi, u baribir "sohibqirondir " demoqchi bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bolsak, shoir Muhammad Ali Amir Temur obrazini o'zining romanlari va sha'rida juda yaxshi tasvirlangan. Ayniqsa "Ulug' saltanat"epopeyasida Amir Temur obraziga chuqur yondashgan.

REFERENCES

1. Matyoqub Qo'shjonov "Yozuvchi kamolotidan dalolat ".
2. Muhammad Ali Ahmedov,"Ulug' saltanat",1-kitob. Jahongir Mirzo. T: Sharq nashriyoti ,2003
3. Muhammad Ali Ahmedov,"Saylanma",T:Sharq nashriyoti,1997
4. Matyoqub Qo'shjonov "Yozuvchi kamolotidan dalolat ".
5. <https://uz.wikipedia.org>
6. <https://n.ziyouz.com>